

Surxondaryoda budda tasviri tushirilgan terrakota haykali topildi



Surxondaryoda budda tasviri tushirilgan terrakota haykali topildi

Surxondaryo vohasi, xususan Termiz shahri milodiy 1-3 asrlarda buddizm markazi sifatida tanilgan. Bu haqda Xitoning tarixiy manbalari ham guvohlik beradi. Eski Termiz hududidagi buddaviylik ibodatxonalarini undan topilgan budda haykallari shular jumlasidandir.

Surxondaryo viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, xuddi shunday budda tasviri tushirilgan terrakota haykali viloyatimizning Sariosiyo tumanidan ham topildi. Ushbu terrakota haykalida buddanining o'tirgan holati tasvirlangan.

Tumanning "Shahriobod" mahallasi Hurvatan qishlog'ida yashovchi fuqaro tomonidan topilgan haykalcha "Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasiga topshirilmoqda.